



## Korxonalar va tashkilotlar

(2019-yil 1-iyul holatiga)

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Ro'yxatdan o'tgan

34,1 ming.

2019-yilning yanvar-iyun oylarida Farg'ona viloyatida 4788 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2412 taga ko'pdir.

Faoliyat ko'rsatayotgan

33,6 ming.

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 6,2 mingta (22,7 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 33,6 mingtani tashkil etgan.

Yangi tashkil etilganlar

4,8 ming.

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiriq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.




# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-iyul holatiga)

34,1 mingtani  
tashkil etdi

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar soni, birlikda



22,2 %


O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati



2019-yilning 1-iyul holatiga 34071 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 4,9 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 21,6 % sanoatda, 7,8 % qurulishda, 25,1 % savdoda, 4,0 % tashish va saqlash, 4,8 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,0 % axborot va aloqa, 2,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 26,6 % boshqafaoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

# Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha (8556 ta) savdo, (7350 ta) sanoat, (2642 ta) qurilish, (1676 ta) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, (1645 ta) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, (1365 ta) tashish va saqlash, (1010 ta) axborot va aloqa, (767 ta) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda (9060 ta) boshqa faoliyat turlariga to'g'ri kelmoqda.

# Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 33604 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 6219 ta (22,7 %) ga o'sgan.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar ulushi, %


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari,)




Savdo




Sanoat



Qurulish




Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar




Tashish va saqlash



Axborot va aloqa




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



Boshqa turlar

# Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Farg'ona shahri (6024 ta), Qo'qon shahri (4525 ta), Marg'ilon shahri (3349 ta), Uchko'prik tumani (1750 ta) va Dang'ara tumani (1595 ta) shahar, tumanlar hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha So'x tumani (786 ta), Furqat tumani (803 ta) hamda Yozyovon (727 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

# Yangi tashkil etilgan

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-iyun oylarida 4788 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 2172 taga ko'pdir.

Yangi tashkil etilgan korxonalarining o'sish surati, birlikda



Yangi tashkil etilgan korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (1163 ta), savdoda (2192 ta), qurilishda (296 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (184 ta), tashish va saqlashda (170 ta), yashash va ovqatlanish xizmatlarida (300 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (47 ta), va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (56 ta) tashkil etilgan.

# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Savdo



2192

Tashish va saqlash



170

Sanoat



1163

Qurilish



296

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



300

Axborot va aloqa



47

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



56

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi



184


Boshqa turlar



380


# Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar asosiy qismi Farg'ona (724 ta), Qo'qon (546 ta), Marg'ilon (456 ta) shaharlarida, Oltiariq (288 ta), Quva (313 ta) va O'zbekiston (231 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam So'x (62 ta) hamda Yozyovon (94 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar yillar kesimida



■ Korxonalar sonini o'sishi, birlikda



# Tijorat korxonalari


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-iyul holatiga)

**Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar va tashkilotlar soni 27827 tani tashkil qildi.**

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda


Mas'uliyati cheklangan jamiyati



Xususiy korxonona



Oilaviy korxonona




Aksiyadorlik jamiyati



Boshqalar



# Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar



351 ta

O'tgan yilning shu davriga nisbatan 47,8 % o'sgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar soni.

Asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.



2019-yil 1-iyul holatiga ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 351 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 115 taga yoki 47,8 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 250 tasi qo'shma korxonalar, 101 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.


# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda



Rossiya Federatsiyasi	50
Turkiya Respublikasi	17
Xitoy Xalq Respublikasi	56
Qozog'iston Respublikasi	5
Koreya Respublikasi	20
Boshqa davlatlar	203



## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning 250 tasi qo'shma, 101 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.




Xorijiy korxonalar

Jami

Qo'shma korxonalar




Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Farg'ona 115 ta (33,0 %), Qo'qon 46 ta (13,2 %), Marg'ilon 23 ta (6,6 %), Quvasoy 21 ta (6,0) shaharlarida, Farg'ona tumanida 17 ta (4,9 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar So'x tumani 2 ta (0,6 %), Furqat tumani 4 ta (1,1 %), Qo'shtepa tumani 5 ta (1,4 %), Bag'dod tumani 9 ta (2,6 %), Buvayda tumani 7 ta (2,0 %) va Yozyovon tumani 3 ta (0,9 %) hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.




## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda



Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.



# Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar




## 1 Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar


2019-yilning yanvar-iyun oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 68 tani tashkil etgan.

Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,1 martaba ko'paygan.

Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 10 ta, Turkiya Respublikasi – 3 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 8 ta, Koreya Respublikasi – 8 ta va boshqa davlatlar – 39 ta korxonalar yangi tashkil etilgan.



# Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 32 ta, savdoda 14 ta, qishloq va o'rmon xo'jaligi 14 ta, qurilishda 1 ta va boshqa korxonalarda 7 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-iyul holatiga)



*2019-yil 1-iyul holatiga respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 27662 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 27,3 % ga oshgan.*

*2019-yil yanvar-iyun oylarida 4622 tadan ziyod kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 2659 taga ko'proqdir.*






• Kichik tadbirkorlik subyektlarining eng katta ulushi

• Kichik tadbirkorlik subyektlarining eng kichik ulushi



Farg'ona shahar  
18,3 %



Beshariq tumani  
2,7%



Qo'qon shahar  
14,3%



Rishton tumani  
2,7 %



Marg'ilon shahar  
10,9%



Furqat tumani  
2,2 %



Uchko'pik tumani  
5,4 %



So'x tumani  
2,2 %




Dang'ara tumani  
4,9 %



Yozyovon tumani  
1,9%

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ro'yxatdan o'tgan jami 27956 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 8524 tasi (30,5 %) - savdoda, 7302 tasi (26,1 %) - sanoatda, 2624 tasi (9,4 %) - qurilishda, 1619 tasi (5,8 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1637 tasi (5,9 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 1349 tasi (4,8 %) - tashish va saqlashda, 1008 tasi (3,6 %) - axborot va aloqa sohasida, 576 tasi (2,1 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 3317 tasi (11,9 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Savdo

47,4 %



Sanoat

25,2 %



Qurilish

6,4 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

6,5 %



Tashish va saqlash

3,7 %



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

3,7 %



Axborot va aloqa

1,0 %



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

1,2 %




Boshqa turlar

5,0 %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (2191 ta), sanoatda (1163 ta), boshqa turdagi xizmatlar (232 ta), qurilishda (294 ta), tashish va saqlashda (170 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (170 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (300 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (47 ta), hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (55 ta) tashkil etilgan.

# Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni, birlikda




Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Farg'ona (691 ta), Qo'qon (530 ta), Marg'ilon (449 ta) shaharlarida, Oltiariq (279 ta) va Buvayda (236 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam So'x (60 ta), Furqat (110 ta) hamda Yozyovon (87 ta) tumanlarida tashkil etilgan.


# Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



(1-iyul holatiga)




● Ro'yxatdan o'tgan  
● Faoliyat ko'rsatayotgan  
● Yangi tashkil etilgan




● Ro'yxatdan o'tgan  
● Faoliyat ko'rsatayotgan  
● Yangi tashkil etilgan

## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Faoliyat olib borayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 46,0 % yoki 1595 tasi sanoat, 19,1 % yoki 664 tasi savdo, 13,4 % yoki 466 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 7,7 % yoki 268 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 2,2 % yoki 75 tasi tashish va saqlash, 0,9 % yoki 31 tasi axborot va aloqa, 0,9 % yoki 32 tasi qurilish, 0,9 % yoki 31 tasi sog`liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish hamda 8,8 % yoki 307 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

**Viloyat statistika boshqarmasi**  
**Statistik registrlarni yuritish**  
**bo'limi**

**Tel.:71-230-87-37**

